



Adiba YUSUVALIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi (PhD)
E-mail: adiba1804@gmail.com

Puchon universiteti dotsenti, PhD L.Jabarova taqrizi ostida

THE ROLE OF ANXIETY IN THE SOCIAL ADAPTATION OF STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS

Annotation

This article highlights the relationship between the feeling of anxiety and the social adaptation of students with hearing impairments. Social adaptation, as a process, constantly occurs throughout ontogenesis and is determined by the various stages of ontogenesis (in terms of the level of activity, nature, degree and depth of influence, and speed). Social adaptation is the formation of an individual within a certain culture and a specific social system. A number of psychological characteristics influence social adaptation, one of which is anxiety. The emergence of anxiety related to interpersonal relationships plays an important role in interactions with others and in attitudes toward them.

Key words: Social adaptation, social activity, social norms, self-acceptance, emotional comfort, internality, anxiety.

РОЛЬ ТРЕВОЖНОСТИ В СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ СЛАБОСЛЫШАЩИХ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье раскрывается взаимосвязь между чувством тревожности и социальной адаптацией слабослышащих учащихся. Социальная адаптация как процесс постоянно протекает в онтогенезе и определяется различными его этапами (по уровню активности, характеру, степени и глубине воздействия, скорости). Социальная адаптация – это формирование личности в определённой культуре и в конкретной социальной системе. На социальную адаптацию оказывают влияние ряд психологических особенностей, одной из которых является тревожность. Возникновение тревоги, связанной с межличностными отношениями, играет важную роль в отношении к окружающим и во взаимодействии с ними.

Ключевые слова: Социальная адаптация, социальная активность, социальная норма, самопринятие, эмоциональный комфорт, интернальность, тревожность.

ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILAR IJTIMOIIY MOSLASHUVIDA XAVOTIRLANISH HISSINING O'RNII

Annotatsiya

Mazkur maqolada zaif eshituvchi o'quvchilarning xavotirlanish hissi va ijtimoiy moslashuvining o'zaro aloqadorligi yoritib berilgan. Ijtimoiy moslashuv jarayon sifatida doimiy ravishda ontogenezd, turli (faollik darajasi, xarakteri, ta'sir darajasi va chuqurligi, tezligi bo'yicha) ontogeneznining turli bosqichlarida vujudga keladi va shu bilan belgilanadi. Ijtimoiy moslashuv - bu ma'lum bir madaniyatda, muayyan ijtimoiy tizimda shaxsning shakllanishidir. Ijtimoiy moslashuvga bir qancha psixologik xususiyatlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shulardan biri xavotirlanuvchanlikdir. Shaxslararo munosabatga bog'liq xavotirning yuzaga kelishi, atrofdagilarga nisbatan va ular bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy faollik, ijtimoiy norma, o'zini qabul qilish, emotsional qulaylik, internallik, xavotirlanuvchanlik.

Kirish. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan fazilatlariga ega bo'ladi, muayyan qadriyatlar va xulq-atvor shakllarini o'zlashtiradi. Shu bilan birga, shaxsning o'zi ijtimoiy xulq-atvor va shaxslararo munosabatlar normalarini o'zlashtirishda, tegishli ijtimoiy rollar va funksiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashda faol ishtirok etadi. Ijtimoiylashuv jarayonlarida aqliy funksiyalar va ijtimoiy xulq-atvor ontogeneznining dastlabki shakllarini shakllantirish bilan bog'liq. Ijtimoiy tajribani ta'lim va tarbiya tizimi orqali o'tkazish, muloqot jarayoni va birgalikdagi faoliyat jarayonida odamlarning o'zaro ta'siri mavjud. Ijtimoiylashuv jarayonida inson o'zi tegishli bo'lgan jamiyat a'zosi sifatida shakllanadi. Muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv nafaqat insonning jamiyatdagi samarali moslashuvi, balki ma'lum darajada jamiyatga, uning rivojlanishi hayotiy to'qnashuvlarning bir qismiga qarshi turish qobiliyatidir.

Zaif eshituvchi insonlarning ijtimoiy moslashuvi ularning ijtimoiylashuvining ajralmas qismidir. Bu faol moslashuv, shaxsning o'zi uchun yangi ijtimoiy sharoitlarni yoki ijtimoiy muhitni o'zlashtirish jarayonini aks ettiradi [1; 65-

67-b]. Zaif eshituvchilarning ijtimoiylashuv xususiyatlari eshitishning ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi roli bilan belgilanadi. L. S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, odamning karsoqov bo'lishi ko'rlikka nisbatan katta baxtsizlikdir, chunki bu uni odamlar bilan muloqot qilishda muammolarni keltirib chiqaradi.

Karlik ijtimoiy kamchilik sifatida ko'rlikka nisbatan to'g'ridan-to'g'ri shaxsning ijtimoiy aloqalarini buzadi. Eshitish nuqsoni eshitmaydigan odamlarni odatdagi usullar bilan ijtimoiylashtirishga to'sqinlik qiladi, ularni boshqalar bilan aloqa qilishdan ajratib turadi, atrofdagilarning ularga bo'lgan munosabatiga ta'sir qilib, turli xil ma'lumot manbalariga kirishni qiyinlashtiradi.

Ijtimoiylashuv-bu shaxsni shakllantirish, uni o'qitish, tarbiyalash va ushbu jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy meyorlar, qadriyatlar, munosabat, xulq-atvor namunalarini o'zlashtirish jarayoni. Zamonaviy tadqiqotchilar A. V. Mudrik, S. A. Kozlova insonning ijtimoiylashuvini uning namoyon bo'lishining uch birligida ko'rib chiqadilar:

-ijtimoiy dunyoga moslashish;

-ijtimoiy dunyoni berilgan deb integratsiya qilish va qabul qilish;

-farqlash-ijtimoiy voqelikni, ijtimoiy dunyoni o'zlashtirish, o'zgartirish va unda individualizatsiya qilish qobiliyati va ehtiyojlari [2].

Diagnostika va korreksiyaning birligi prinsipi ijtimoiy-reabilitatsiya jarayonida yordam ko'rsatishning yaxlitligini aks ettiradi. Uning mohiyati shundaki, birinchi navbatda, ijtimoiy-reabilitatsiya ta'sirining boshlanishidan oldin kompleks diagnostika tekshiruv bosqichi o'tkazilishi kerak, uning asosida uning rivojlanish darajasi to'g'risida dastlabki xulosa tuziladi, tuzatish va rivojlantirish ishlarining maqsad va vazifalari shakllantiriladi. Ikkinchidan, ijtimoiy reabilitatsiya tadbirlari rejasini amalga oshirish shaxsning o'zgarishi dinamikasini, uning xulq-atvori, faoliyati, emotsional holatlari, tuyg'ulari va xavotirlarini doimiy ravishda nazorat qilishni talab qiladi. Bunday nazorat bizga ijtimoiy reabilitatsiya dasturiga kerakli tuzatishlar kiritish, ta'sir qilish usullari va vositalarini o'z vaqtida o'zgartirish va to'ldirish imkonini beradi [3].

Eshitish qobiliyati buzilgan insonlarni ijtimoiylashtirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan ijtimoiy hayotning turli sohalarida sodir bo'ladigan jarayonlarning ahamiyati bilan belgilanadi. Maktab ijtimoiy hayot, jamiyat, iqtisodiyot, siyosat to'g'risida bir qator bilimlarni beradi. Biroq, eshitish qobiliyati past odamlarning nutqini, tafakkurini rivojlantirishning ma'lum bir o'ziga xosligi, ma'lumot olishda ma'lum cheklavlar, hayotiy tajriba ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada qiyinlashtiradi [4]. Maktab o'quvchilariga o'quv jarayonida ijtimoiylashuvini oshiruvchi dars o'tilmaydi. Muloqotga kirishuvchanligini oshirish bo'yicha darslar qo'yilmaganligi barchamizga ma'lum. Ammo ularning hayotlari davomida yo'llarini topa olishlari, jamiyatga qo'shilishda qiynalmasliklari uchun ijtimoiylashuv jarayonlariga e'tibor qaratish zarur.

Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyatda normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan e'tiqodlarni, ijtimoiy ma'qullangan xulq-atvor normalarini oladi [5]. Ijtimoiylashuv-jamiyat madaniyatini o'zlashtirish va ko'paytirish jarayonida insonning butun hayoti davomida rivojlanishi va o'zini o'zi anglashi muhim omili bo'lib xizmat qiladi [6].

S. Sobkin, eshitish qobiliyati buzilgan o'spirinning ijtimoiy shakllanishi masalalarini, xususan, maktab o'quvchilarining nuqsoni va nuqsonni o'rni bosish mexanizmlari bilan bog'liq masalalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki "...kar o'spirin uchun ijtimoiy muhitning kengayishi uning nuqsoni bo'yicha urg'uning kuchayishi bilan bog'liq, chunki atrof-muhit ko'pincha uning jismoniy nuqsoni tufayli unga nisbatan agressiv bo'lib chiqadi va shu bilan bu nuqsonni ijtimoiy nuqson sifatida rivojlantiradi. Bundan tashqari, yoshi ulg'aygan sari kar maktab o'quvchilari ijtimoiy muhitning o'zlariga nisbatan ijobiy munosabatini tobora kamroq his etadilar" [7]. Ular maktab ichida o'zlarini yaxshi his qilsalar-da, maktabdan tashqarida oila, mahalla, maktabdan tashqari har qanday muhitda o'zlarini noqulay his qiladilar. Taxminimizga ko'ra xavotirlanuvchanliklari oshib, o'zlaridagi emotsional

1-jadval

Ijtimoiy psixologik adaptatsiya va xavotirlanuvchanlik metodikalari o'rtasidagi korrelyatsiya ko'rsatkichlari (K. Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha)

Ko'rsatkichlar	Adaptatsiya	Yolg'on	O'z-o'zini qabul qilish	Boshqalarni qabul qilish	Emotsional qulaylik
Maktab bilan bog'liq xavotirlanish	-,214(*)	-,123	-,168	-,301(**)	-,345(**)
O'zini baholash bilan bog'liq xavotirlanish	-,202(*)	,000	-,203(*)	-,247(**)	-,365(**)

holatlarini tushunish, atroflaridagi insonlarning emotsional holatlarini tushunish, boshqalarni qabul qila olish hislarini o'rganish kerak degan fikrga kelindi.

T. A. Dobrovolskayaning so'zlariga ko'ra, sensor va ijtimoiy mahrumlik, noto'g'ri tarbiya va boshqalarning hissiy buzilishlari bo'lgan odamlarga bo'lgan o'ziga xos munosabati sharoitida "defitsit tipidagi shaxs" shakllanadi. Ko'pincha astenik va psevdoutik xarakter xususiyatlarining ustunligi bilan kechiktirilgan shaxsiy rivojlanish kuzatiladi – tengdoshlardan himoyalani, ularning kamchiliklariga e'tiborni jalb qilishdan qo'rqish, zaiflik, teginish, xayolot dunyosiga chekinish. Shaxsni rivojlantirishning ushbu varianti muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvga to'sqinlik qiluvchi omillardan biridir [8].

YE. M. Yefimova shaxsning ijtimoiy barqarorligini zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish shartlaridan biri sifatida ta'kidlaydi. Darhaqiqat, faqat yetuk, barqaror shaxs zamonaviy jamiyatning doimiy o'zgaruvchan sharoitlariga moslasha oladi. Shu bilan birga, emotsional intellekt ijtimoiy muhitga moslashish uchun muhimdir, chunki emotsional intellekt insonning his-tuyg'ularini boshqarishga yordam beradi [9].

A. A. Gumerovanning g'oyalarga ko'ra emotsional intellekt shaxsning ijtimoiy barqarorligini shakllantirish omili deb hisoblaydi. Ijtimoiy barqarorlik, bir tomondan, boshqa odamlar, jamoa, faoliyat va aloqa mahsulotlari, atrof-muhit va o'zi bilan munosabatlar shaklida namoyon bo'ladigan shaxsning ma'lum bir pozitsiyasi, boshqa tomondan, yangi munosabatlarni o'rganishda moslashuvchanlik, normallashtirish qobiliyatidir [10].

O. A. Belova, M. V. Akulinalar xavotirlanuvchanlikning ko'payib ketishi, yoki kamayib ketishi inson hayotida birdek zararli hisoblanib ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlaganlar, M. M. Bezrukix, L. B. Dixan, V. S. Kukushin, A. G. Trushkin kabi bir qator olimlar sog'lom hayot kechirish, ijtimoiylashuv, maktab va jamiyatda o'z o'rnini topish, shaxsiy imkoniyatlarini ochishda xavotir darajasi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganlar.

Xavotirlanuvchanlikning meyorda bo'lishi zaif eshituvchi o'quvchilar ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, agar pasayib ketsa mas'uliyat hissi pasayadi, shuningdek xavotirlanuvchanlik yuqorilashsa ijtimoiy muhitga kirishda tashqi muhit qanday qabul qilishi, ular bilan munosabati salbiy aks etishi nuqtayi nazaridan pasayishini kuzatamiz.

M. I. Rojkovning "Shaxs ijtimoiylashuvi" va A. M. Prixojanning "Xavotirlanuvchanlik darajasini o'lchash" metodikalari, N. Xollning "Emotsional intellekt" metodikasi shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik, K. R. Rodgers, R. E. Daymondning "Ijtimoiy-psixologik moslashuv" metodikasi va A. M. Prixojanning "Xavotirlanuvchanlik darajasini o'lchash" metodikalari, N. Xollning "Emotsional intellekt" metodikasi shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik, M. I. Rojkovning "Shaxs ijtimoiylashuvi" va K. R. Rodgers, R. E. Daymondning "Ijtimoiy-psixologik moslashuv" metodikasi shkalalari o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik o'rganildi.

Shaxslararo munosabatga bog'liq xavotir	-,306(**)	,163	-,106	-,265(**)	-,367(**)
---	-----------	------	-------	-----------	-----------

Izoh: * – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$.

Maktab bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik oshib borishining ta'siri yuqori darajada ekanligi kuzatildi. K. R. Rodgers, R. E. Daymondning "Ijtimoiy-psixologik moslashuv" metodikasining quyidagi shkalalari adaptatsiya ($r=-0,214$; $p<0,05$), boshqalarni qabul qilish ($r=-0,301$; $p<0,01$), emotsional qulaylik ($r=-0,345$; $p<0,01$) shkalalari bilan manfiy munosabat aniqlandi. Demak, bu xavotirlanish emotsional bilimdonlikni past ekanligini ko'rsatadi, zaif eshituvchi o'quvchi o'z emotsiyasini boshqarishda qiyinaladi, vaziyatlarni qabul qilishda tushkunlik, agressiya vujudga kelishi mumkin. Shu bilan bir qatorda insondagi o'z emotsiyasini boshqarishning past ekanligi ham kuzatilib motivatsiya shkalasidagi manfiy natijada kuzatilganidek inson o'z xulqini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishi kuzatiladi (1-jadval).

Xavotirlanuvchanlik nafaqat o'z emotsiyasini boshqara olishdagi qiyinchiliklarga, balki o'zgalarning emotsiyasini tushuna olish, ularni his qilish, hamdardlik bildirish, tushunish kabi hislarini ham kamayib borishi kuzatildi. Xavotir va emotsional tushkunlik o'z-o'zidan zaif eshituvchi o'quvchining atrofdagi insonlarga qo'shilishi, nafaqat atrofdagi insonlarga balki, maktabida ham moslashuvda qiyinchilik yuzaga keladi. Agar o'quvchi boshqalarni boricha, baholamasdan qabul qilsa o'zaro munosabatlarda ijobiy munosabatni kuzatishimiz va xavotirlilik darajasini kamaytirishimiz mumkin, ma'lum bo'lganidek xavotirlilikni oshishi boshqalarni qabul qilishda qiyinchilikni yuzaga kelishi, atrofdagilarning harakatlari va fikrlariga qarshilikni uyg'onishi, o'quvchi o'zini emotsional jihatdan qulay his qilmasligi bu esa o'quvchini hayoti davomida depressiyaga tushishi, yoxud agressiv bo'lib qolishiga olib keladi (1-jadval).

O'zini baholash bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik ($r=-0,202$; $p<0,05$) adaptatsiya shkalasi, o'z-o'zini qabul qilish ($r=-0,202$; $p<0,05$), boshqalarni qabul qilish ($r=-0,247$; $p<0,01$), emotsional qulaylik ($r=-0,365$; $p<0,01$) shkalalari bilan teskari korrelyatsiya kuzatildi. Zaif eshituvchi o'quvchilarda o'zlarini baholashdagi xavotirlari ularni ijtimoiy moslashuvlarida, insonlar bilan erkin munosabatga kirisha olish, xohish – imkoniyatlarini erkin bayon eta olish, muhitda o'zini qulay his etishi sust ekanligi, o'zlarini qabul qila olmasliklari, doimiy tanqid qilishlari, o'zlaridan qoniqmasliklari, yuqori talablar qo'yishlari, shuningdek boshqalarni ham qabul qila olmasliklari, insonlar bilan o'zaro ijobiy munosabatga kirishmasliklari, ulardan qoniqmasliklari kuzatildi. O'zini va o'zgalarni qabul qila olmaslik, ijtimoiy moslasha olmaslik, o'zidan xavotirlanish hissi, o'z-o'zidan o'quvchi o'zida emotsional qulaylik his eta olmaslik, zo'riqish kuchayishiga

sabab bo'ladi. Demak, muhim vazifalarimizdan biri o'zini baholash bilan bog'liq xavotirni normallashtirishimiz kerak (1-jadval).

Xavotirlanishning biz diqqatimizni qaratgan A. M. Prixojan tomonidan keltirilgan barcha ko'rinishlarida boshqa shkalalar bilan teskari aloqalar kuzatildi. Faqat ayrim maktab bilan bog'liq xavotirlanish, o'z-o'zini qabul qilishda salbiy natija kuzatilmagan bo'lsa, o'z-o'zini baholash bilan bog'liq xavotirlanishda empatiya va o'zgalarning emotsiyasini boshqarish va tushunishga ta'sir etmasligi, shaxslararo munosabatga bog'liq xavotirlanishda esa o'zgalarning emotsiyasini tushunish va boshqarish, o'z-o'zini qabul qilishga ta'sir etmasligi kuzatildi. Umumlashtirgan xolda tahlil qilib aytishimiz mumkinki, ijtimoiy moslashuvda muammosi bor o'quvchilarni boshqalarni qabul qilish darajasini oshirish kerak ekan, chunki barcha xavotirlanish turlarida boshqalarni qabul qilish shkalasi tushib ketgan, bu esa ularning xavotirlanuvchanlik, qo'rquvni oshishiga sabab bo'luvchi omillardan bittasi bo'lishi mumkin (1-jadval).

Shaxslararo munosabatga bog'liq xavotirlanish shkalasida quyidagi shkalalar bilan manfiy munosabatlar aniqlandi. Adaptatsiya ($r=-0,306$; $p<0,01$), boshqalarni qabul qilish ($r=-0,265$; $p<0,01$), emotsional qulaylik ($r=-0,367$; $p<0,01$). Zaif eshituvchi o'quvchida atrofdagilar bilan o'zaro munosabatga kirishishdan xavotirlanish, qo'rquv, undagi emotsional bilimdonlikni pasayishi bilan bog'liqligi, o'z emotsiyasini boshqarishda sustlashish, xulqidagi kamchiliklarni yuzaga kelishi, hissiyotlarini noadekvat namoyish etish, atrofdagilarning hissiyotlari, ulardagi tushkunlik, yuqori kayfiyatni sezmaslik, o'rtoqlari, kasbdoshlari, ta'lim muassasasi, uni o'rab turgan insonlarga moslasha olmaslik, boshqalardagi xato kamchiliklarni ko'rish, unga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lmaydi degan fikrlarning uyg'onishi va yuqoridagi noqulayliklar eshitishida nuqsoni bor yigit qizlarda emotsional qulaylik, erkinlik, xotirjamlikning yo'qolishiga sabab bo'lar ekan (1-jadval).

Zaif eshituvchi o'quvchilarda maktab muhitidan tashqi muhitdagi shaxslararo munosabat bilan bog'liq xavotirlanuvchanlik yuqori bo'lib, ularning ijtimoiy moslashuvlariga ta'sir ko'rsatadi. Maktab bilan bog'liq xavotirlanuvchanlikning me'yorda ekanligi maktabdagi sinfdoshlari va rahbariyat bilan ijobiy munosabatda ekanligini ko'rsatadi. O'quvchilardagi maktabdan tashqi muhitdagi shaxslararo munosabat bilan bog'liq xavotirni yaxshilash jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga ko'mak beradi.

ADABIYOTLAR

1. Токарская Л. В., Черемных М. Н. сравнительный анализ личностных особенностей подростков с нарушением слуха и подростков, не имеющих ограниченных возможностей здоровья. // Психология. М., 2021.
2. Мудрик А. В. Социальная педагогика: М., 2007.
3. Елисеева, Ю. Н. Особенности социализации детей школьного возраста с ОВЗ / Ю. Н. Елисеева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 3 (107).
4. Лебединский, В. В. Нарушения психического развития в детском возрасте: учеб. пособие для студентов психолог. фак. высш. учеб. заведений. – М.: «Академия», 2004.
5. Занков Л. В. Избранные педагогические труды. – М., 1990.
6. Мудрик А. В. Социальная педагогика: М., 2007.
7. Собкин В. С. Подросток с дефектом слуха: ценности, ориентации, жизненные планы, социальные связи. Эмпирическое исследование. М., 1997.
8. Добровольская Т. А. Социально-психологические особенности взаимодействия инвалидов и здоровых. М., 1993.
9. Ефимова Е.М. Социальная устойчивость личности как условие успешной адаптации к современной социокультурной среде [Электронный ресурс]. URL: <https://www.sgu.ru/sites/default/files/textdocsfiles/2013/07/15/>